Особое внимание обратить на изучение в школе такой образовательной дисциплины как "Информатика". Процесс информатизации общества ставит перед педагогикой задачу организовать подготовку обучающихся таким образом, чтобы они были готовы осмысленно и творчески использовать информационные технологии в своей учебной и профессиональной деятельности. Для того, чтобы осуществить такую подготовку, нужно создать наиболее благоприятные условия для развития ученика как индивидуальности. Ответственная задача учителя - раскрыть индивидуальность ребенка, помочь ей проявиться, развиваться, устояться, обрести избирательность и устойчивость к социальным воздействиям. Потому-то и надо начинать не с отбора по способностям и даже не с формирования желаемых обществу качеств личности, а с квалифицированного педагогического изучения каждого ученика как индивидуальности. И только когда особенности его индивидуального развития будут профессионально выявлены педагогом, проверены на устойчивость их проявления, можно определять формы его дальнейшего обучения. Главной целью является, раскрытие технологии построения личностно - ориентированного обучения на уроках информатики, показать, насколько эффективен и устойчиво восприятие и ребенка на личностно - ориентированном уроке. На конкретном примере описать возможность реализации на практике личностно - ориентированного урока.

Главное стратегическое направление образования мы считаем в решении проблемы личностно ориентированного образования, в котором личность ученика должна быть в центре внимания педагога. Познавательная деятельность, - была бы ведущей в системе "учитель - ученик".

Сегодня образование должно рассматриваться как процесс и результат целостного становления личности: физического, интеллектуального, духовно развитого. Процесс обучения должен стать лишь одним из составляющих, одним из средств образования человека. Усваиваемые знания и способы деятельности не должны являться самоцелью, а должны стать средством для реализации потребности человека быть личностью (А.В. Петровский).

В целях личностно-ориентированного воспитания развиваем познавательный интерес обучающихся, формируем логическое и системное мышление, развиваем рефлексии.

Для достижения поставленных целей:

повышаю информативную ёмкость и наглядность изучаемого материала; улучшаю освоение знаний за счет использования индивидуальных образовательных траекторий; формирую умения моделировать и проектировать изучаемые процессы; развиваю навыки самостоятельной работы; раскрываю потенциал и значимость изучаемого материала в будущей деятельности;

В своей работе опираюсь на такие принципы:

Принцип научности. Применяя его, стремлюсь, донести до учащихся новейшие достижения компьютерных и информационных технологий, используя современный метод обучения - метод проектов. Поощряю исследовательскую деятельность учащихся.

Принцип наглядности. Компьютер как универсальное средство обработки информации обладает широкими дидактическими возможностями, способностью в наглядной форме представить различного рода зависимости и соотношения. Так как, именно наглядно-образные компоненты мышления играют исключительно важную роль в жизни человека, обучаю и поощряю использование

таблиц, диаграмм, графиков, графических изображений.

Наиболее цельные принципы личностно-ориентированного урока информатики:

1. Использование субъектного опыта ребенка. Актуализация имеющегося опыта и знания является важным условием, способствующим пониманию и введению нового знания. Понимание в целом тесно связано с личным опытом субъекта и осуществляется на базе прошлого опыта, знаний, правил и других знаний (о своих возможностях, факторах понимания). Понимание является основным компонентом процесса учения.

2. Вариативность заданий, предоставление ребенку свободы выбора при их выполнении и решении задач, использование наиболее значимых для него способов проработки учебного материала.

3. Накопление знаний, умений и навыков не в качестве самоцели (конечного результата), а важного средства реализации детского творчества.

4. Обеспечение на уроке личностно значимого эмоционального контакта учителя и учеников на основе сотрудничества, сотворчества, мотивации достижения успеха через анализ не только результата, но и процесса его достижения.

Развивающим является то обучение, которое соответствует индивидуальности обучающегося, его потенциальным возможностям в приобретении знаний.

Популярность личностно-ориентированного подхода в обучении обусловлена рядом объективных обстоятельств:

1. Во-первых, динамичное развитие общества требует формирования в человеке не столько типичного, сколько ярко индивидуального, позволяющего ребенку стать и оставаться самим собой в быстро изменяющемся социуме.

2. Во-вторых, современные школьники прагматичны в мыслях и действиях, мобильны и раскрепощены, а это требует от педагогов применения новых подходов и методов во взаимодействии с учащимися.

3. В-третьих, современная школа остро нуждается в гуманизации отношений детей и взрослых.

Список использованной литературы

1. Николаева И.В., Вострякова С.А. Взаимодействие педагога-психолога и учителя в личностно-ориентированной школе как условие создания безопасной образовательной среды / Николаева И.В. // "Психология образования: подготовка кадров и психологическое просвещение" (Москва, 13-15 декабря 2007 г.):

2. Материалы 4 Национальной научно-практической конференции. - М.: Общероссийская общественная организация "Федерация психологов образования России", 2007.


3. Филиппов В. М Министерство образования. Стандарты основного общего и полного образования по информатике и информационным технологиям // Информатика и образование. - 2004. - №4. - с.7-2

4. Якиманская И.С. Технология личностно - ориентированного образования. - Москва: Издательство "Сентябрь", 2000. -175 с.

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Умарова Матлюба Юсуфжановна,
Наманган вилояти ХТХҚТМОҲ маркази математика фани ўқитувчиси

АЛГЕБРА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ - МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0656-2020-2-6>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада ал-Хоразмийнинг алгебра соҳасидаги илмий рисолалари ва унда келтирилган манбалар ҳақида сўз юритилган. Ал-Хоразмийнинг квадрат тенгламаларни ечиш усуллари баён етилган.

Калит сўзлар: алгебра, алгоритм, тенглама, квадрат тенглама, ечим, илдиз.

АННОТАЦИЯ

в данной статье рассматриваются научные сведения по алгебре аль-Хорезми, а также приёмы и способы решения квадратных уравнений, предложенные аль-Хорезми

Ключевые понятия: алгебра, алгоритм, уравнение, квадратные уравнения, решение, корень уравнения

ANNOTATION

In this article it is written about Al-Kharezmi's scientific books related to algebra and source given in it. And ways of solving Al-Kharezmi's square equations are also given.

Key words: algebra, algorithm, equation, square equation, solution, root.

Ал-Хоразмий алгебра фанига доир кўплаб илмий ишларни бажарганки, уларнинг аҳамияти ҳеч қачон пасаймайди.

Буюк алломанинг "Ал-китоб ал-мухтасар фи ҳисоб ал-жабр вал-муқобала" ("Ал-жабр ал муқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб") арабча нусхаси бизгача етиб келган. Рисоланинг номидаги "ал-жабр" ва "ал-муқобала" сўзлари "тўлдириш" ва "рўпара қўйиш" - ўрта аср алгебрасининг иккита асосий амалини англатади. "Ал-жабр" сўзи лотинча "алгебра" бўлиб, Хоразмий асос солган янги фаннинг номи бўлиб қолди. "Ал-жабр" кейинроқ математикани алоҳида бўлимига айланиб, алгебра деб аталадиган бўлди. Шу асар туфайли "Ал-Хоразмий" номи "Алгоритмус" ҳозирги замон ҳисоблаш математикасининг асосий атамаси "алгоритм"га айланди.

Хоразмий бу асарини алоҳида ном билан "Васиятлар китоби" деб атаган. Хоразмий ўз рисоласида ҳеч қандай белги келтирмайди ва мазмунни бутунлай сўз билан баён этади ва шакллар келтиради.

Ал-Хоразмийнинг бу асари кўплаб олимлар томонидан тадқиқ этилган ва уни жаҳон фани тараққиётига қўшилган улкан ҳисса деб тан олинган. Мазкур асар замонавий алгебра фани учун пойдевор бўлиб хизмат қилган.

Албатта, ал-Хоразмийгача ҳам алгебра фани мавжуд бўлган. Аммо, шу давр математиклари алгебраик масалаларни фақат хусусий ҳоллар учун ечишни ўрганишган.

Ал-Хоразмийнинг "Ал-жабр ал муқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб" китоби икки қисмдан (назарий ва амалий) иборат. Китобнинг биринчи қисми чизиқли ва квадрат тенгламаларни ечиш ҳамда айрим геометрик масалаларга бағишланган. Иккинчи қисми эса хўжалик-маиший масалаларга алгебраик усулларни қўллашга доир амалий маълумотларни қамраб олган.

Асарнинг кириш қисмида ал-Хоразмий шундай дейди: "Мен ўз ичига арифметиканинг содда ва мураккаб масалаларини олган алжабр ва ал-муқобала ҳисоби ҳақида китоб ёздим. Бу китоб одамларга меросларни бўлишда, васиятлар ёзишда, мол-мулк тақсимотида, адолат, савдо, каналлар қозиш, ерларни ўлчаш ва бошқа турли масалаларда ёрдам беради". Бошқача айтганда, бу китоб алгебраик методлардан фойдаланиш амалий характердаги кенг доирадаги амалий масалаларни ҳал қилиш усулларига бағишланган.

Мазкур асарда Ал-Хоразмий чизиқли ва квадрат тенгламаларни классификациясини келтиради. Маълумки, бугунги кунда квадрат тенгламаларнинг умумий кўриниши тарзида ёзилади. Бу ерда коэффицентлар мусбат, манфий ёки ноль бўлган қийматларни қабул қилиши мумкин. Аммо, ал-Хоразмий даврида математикада манфий сонлар ҳамда белгилашлар тизими мавжуд бўлмагани учун, олим квадрат тенгламаларни мусбат коэффицентлар учун қарайди ва барча формула ва методларни сўзлар орқали баён этади.

Ал-Хоразмий номаълум сонни "илдиз" (жизр) атамаси билан атайди ва унга қуйидагича таъриф беради: "Илдиз - ўзига ўзи кўпайириладиган ихтиёрий сон ёки буюм". Бу таъриф қадим математиклари томонидан тенгламаларни ечиш деганда нафақат номаълум сон x ни, балки x^2 ни ҳам топишни назарда тутганликларига ишора қилади. Номаълум миқдорнинг квадратини "мулк" ("мал") дег аталган ва "илдизни ўзини ўзига кўпайтириб ҳосил қилинади" деб таърифланади.

Тенгламанинг озод хадини ал-Хоразмий "дирҳам" деб атайди.

Замонавий тил билан айтганда ал-Хоразмий қуйидаги тенгламаларнинг ечиш усулларига алоҳида эътибор берган:

- 1) «квадратлар илдизларга тенг», яъни $ax^2 = bx$;
- 2) «квадратлар сонга тенг», яъни $ax^2 = c$;
- 3) «илдизлар сонга тенг», яъни $ax = c$;
- 4) «квадратлар ва илдизлар сонга тенг», яъни $ax^2 + bx = c$;
- 5) «квадратлар ва сонлар илдизга тенг», яъни $ax^2 + c = bx$;
- 6) «илдиз ва сонлар квадратга тенг», яъни $bx + c = ax^2$.

Асарда бу тенгламаларнинг ҳар бири учун намуналар келтирилган.

Берилган тенгламаларни кўрсатилган типлардан бири кўринишига келтириш

учун ал-Хоразмий иккита амал киритади. Уларнинг биринчиси манфий сонни тенгламанинг бир томонидан иккинчи томонига ўтказиш ал-жабр (тўлдириш), иккинчиси эса тенгламанинг ҳар икки томонини қисқартириш - ал-муқобала (тескари қўйиш).

Бундан ташқари, юқори ҳад коэффиценти 1 га тенг бўлиши талаб қилинган.

Ал-жабр ва ал-муқобала қоидаси билан ал-Хоразмий ечган тенгламани кўрайлик. Ечимни олим қуйидагича шакллантиради: "Сен ўнни иккига тақсимла, сўнгра ҳар бир қисмни ўзига кўпайтир ва қўш. Ундан қисмлар оасидаги фарқни айир. Йиғинди 54 дирҳамга тенг бўлди". Ал-Хоразмий 10 нинг қисмларидан бирини буюм, яъни номаълум сон деб қарайди. У ҳолда бошқаси "буюмсиз ўн" дейиш мумкин. Замонавий тил билан айтганда бу тенглама қуйидагича ёзилади:

$$(10 - x)^2 + x^2 + (10 - x) - x = 54$$

Сўнгра, қуйидаги амаллар кетма-кетлигини бажариш тавсия қилинади:

$$100 - 20x + x^2 + x^2 + 10 - x - x = 54$$

$$110 + 2x^2 - 22x = 54.$$

Шундан кейин ал-Хоразмий ёзади: «Тўлдириш ва тескари қўйилганидан айтасанки, бир юз ўн дирҳам ва иккита квадрат 54 дирҳам ва йигирма иккита буюмларга тенг », яъни

$$110 + 2x^2 = 54 - 22x.$$

Энди юқори ҳад коэффицентини бирга келтириш лозим. Ал-Хоразмий айтади: "Иккита квадратни биттага келтир, яъни ўзингда бор нарсаларнинг ярмини ол. Эллик беш дирҳам ва квадрат йигирма етти дирҳам ва ўн битта буюмларга тенг". Бошқача айтганда, олим тенгламанинг ҳар икки томонини 2 га бўлмоқда

$$55 + x^2 = 27 - 11x.$$

Энди охириги амални бажариш қолди холос: «йигирма еттини эллик бешдан айир. Шунда йигирма саккиз дирҳам ва квадрат ўн битта буюмга тенглиги қолади». Шундай қилиб, берилган тенглама каноник кўринишга келди: $28 + x^2 = 11x$.

Ал-Хоразмий бешинчи типдаги ($ax^2 + c = bx$) кўринишидаги тенгламани ечиш йўлини ҳам келтирган: «илдизлар сонини иккига бўл», натижасини «ўзига кўпайтир», дирҳамлар сонини айир ва айирмадан илдиз чиқар, ундан илдизлар сонини ярмини айир. Олим бу билан замонавий тил айтганда қуйидаги амалларни бажаришни таклиф қилмоқда:

$$1) \frac{b}{2}; \quad 2) \left(\frac{b}{2}\right)^2; \quad 3) \left(\frac{b}{2}\right)^2 - c; \quad 4) \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c}; \quad 5) \frac{b}{2} - \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c}.$$

Шундай қилиб, ал-Хоразмий қаралаётган квадрат тенглама учун $\frac{b}{2} - \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c}$ кўринишидаги ечимни ҳосил қилган. У шунингдек,

$x = \frac{b}{2} + \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c}$ сон ҳам тенгламанинг ечими бўла олишини исботлаган.

Бундан ташқари, аллома "Шуни билки, сен ушбу бобда илдизлар сонини

иккилантирдинг ва уни ўзига тенг сонга кўпайтирдинг. Агар шунда кўпайтма квадратга қўшилган дирҳамлар сонидан кам бўлса, масаланинг ечими йўқ” деб таъкидлаган. Ҳақиқатдан ҳам, агар $\left(\frac{b}{2}\right)^2 < c$ бўлса $ax^2 + c = bx$ тенгламанинг ҳақиқий илдизлари мавжуд бўлмайди.

Агар тилга олинган $\left(\frac{b}{2}\right)^2$ сони “дирҳамлар сонига аниқ тенг бўлса, у холда квадратнинг илдизи йиғиндисиз ва айирмаси илдизнинг ярмига тенг бўлади”, яъни $x = \frac{b}{2}$.

Юқоридаги маълумотлардан ҳам кўриниб турибдики, ал-Хоразмий назарий жиҳатдан квадрат тенгламанинг иккита ечимга эга бўлишини тан олган, аммо амалда бу илдизлардан фақат биттаси билан иш олиб борган. Нолга тенг бўлган ечимни эса у бошқа математиклар каби (XVII асргача) қараб чиқмаган.

Ал-Хоразмийнинг "Ал-жабр ал муқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб" китоби математика фани тарихида муҳим ўрин тутди, чунки унда муаллиф алгебра фанини алоҳида фан сифатида шакллантиришга уринган, чизиқли ва квадрат тенгламалар ечишнинг умумий назарияси ҳақидаги маълумотларни келтирган. Албатта, назарий ва амалий маълумотлар ана шу даврга ҳос бўлиб, фақат сўзлар орқали очиб берилган. Бу китоб фақат XVII асрда математика фанини белгилар орқали ифодалаш расм бўлганидан кейингина ўз ўрнини бўшатиб берган. Аммо, унда баён этилган маълумотлар ҳали хануз мактаб математикасида ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ.


Фойдаланилган адабиётлар

1. "Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий". Танланган асарлар. Тошкент, "Фан", 1983 й.
2. Аҳадова М. Ўрта Осиёлик машҳур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари. Тошкент, "Ўқитувчи", 1983.

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Алиязарова Маҳфуза Алишеровна,
PhD (физика-математика фанлари фалсафа доктори)
Наманган вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш
ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази

ҚУЁШ ЭЛЕМЕНТЛАРИНИНГ ВОЛЬТ-АМПЕР ХАРАКТЕРИСТИКАСИ НОИДЕАЛЛИК КОЭФФИЦИЕНТИГА ҲАРОРАТНИНГ ТАЪСИРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0656-2020-2-7>

АННОТАЦИЯ

Мақолада қуёш элементларининг фотовольт-ампер характеристикаларини ноидеаллик коэффицентини ҳароратга боғланиши тадқиқ қилинган. Ноидеаллик коэффицентининг қиймати $160\text{K} < T < 500\text{K}$ оралиқда ҳароратга боғлиқ бўлмаслиги кўрсатилган.

Калит сўзлар: қуёш элементи, ноидеаллик коэффицентини, вольт-ампер характеристика, ҳарорат.

АННОТАЦИЯ

В статье исследованы температурная зависимость коэффициента неидеальности фотовольт-амперных характеристик солнечных элементов. Показано, что коэффициент неидеальности в диапазоне $160\text{K} < T < 500\text{K}$ не зависит от температуры.

Ключевые слова: солнечные элементы, коэффициент неидеальности, фотогальванические характеристики, температура

ANNOTATION

In the article investigates the photovoltaic-amperage characteristics of the solar cells with the nonideality coefficient. It is shown that nonideality coefficient is not dependent on the temperature of $160\text{K} < T < 500\text{K}$.

Key words: Solar elements, coefficient of not ideality, photo galvanic characteristics, temperature

Маълумки, яримўтказгичли қуёш элементларининг (ҚЭ) самарадорлиги асосий электрик параметрлар билан аниқланади.

Улар қисқа туташуш токи ($I_{кз}$), салт ишлаш кучланиши (U_{xx}) ва ВАХ ни тўлдириш коэффициенти бўлиб, улар одатда ff (fillfactor) билан белгиланади. Бу параметр $I_{кз}$ ва U_{xx} билан бирга ҚЭнинг максимал қувватини аниқлайди. ff нинг қиймати ҚЭнинг максимал қувватини $I_{кз}$ ва U_{xx} лар кўпайтмасининг нисбати орқали аниқланади ва у ВАХнинг тўғри бурчакли юкмасининг ўлчови ҳисобланади.

Мумкин бўлган максимал назарий ff кучланиш бўйича қувватни дифференциаллаш ва ҳосиласини нолга тенглаштириш $\frac{d(IU)}{d(U)} = 0$ орқали

аниқланади ҳамда бу эффектив кучланиш учун тенглама олиш имкониятини беради:

$$ff = U_{xx} - \frac{nkT}{q} \ln\left(\frac{qU_{эф}}{nkT} + 1\right) \quad (1)$$

Бу ерда q -электрон заряди, k - Больцман доимийси, n -ҚЭ ни ВАХнинг ноидеаллик коэффициенти, U_{xx} -эффектив кучланиш, T -абсолют температура. Лекин бу усул билан тугалланган тенгламани олиш мумкин эмас. Шунинг учун аниқроқ даражадаги тенгламани олиш учун кўпинча қуйидаги эмперик тенгламадан фойдаланилади:

$$ff = \frac{U_{xx} - \ln(U_{xx} + 0,72)}{U_{xx} + 1}$$

(1) тенгламадан ВАХ структураларда ноидеаллик коэффициентининг n муҳимлиги кўрсатилган. Ноидеаллик коэффициенти n p - n ўтишининг сифатини характерлайди ва куёш элементларида заряд ташувчиларнинг рекомбинацияси тўғрисида гапириш мумкин. Оддий механизмларнинг рекомбинацияси учун $n=1$ га тенг. Бошқа ҳолатларда эса $n=2$ ва ундан ортик қийматларга эга бўлиши мумкин.

Амалиётни кўрсатишича n нинг юқори кўрсатиши нафақат ff ни камайтиради балки тез рекомбинация ҳосил бўлишини ҳам кўрсатади. Шунингдек U_{xx} камайишига сабаб бўлади. Шунинг учун фотоэлектрик параметрлар ҚЭ самарадорлигини ифодалайдиган p - n ўтишдаги ВАХларда ноидеаллик коэффициентини аниқлаш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Маълумки, куёш элементи(ҚЭ) ни занжиридаги фототок зичлиги ушбу ифода билан аниқланади

$$j_{\phi} = j_0 \left(\exp\left(\frac{qU}{n'kT}\right) - 1 \right) - j_{кз} . \quad (1)$$

Бу ерда q -электрон заряди, k -Больцман доимийси, j_0 - ҚЭнинг тўйиниш токи зичлиги, n' - ҚЭ фотовольт-ампер характеристикаси (фотоВАХ) ининг ноидеаллик коэффициенти, U - кучланиш, T - абсолют ҳарорат, $j_{кз}$ - қисқа туташув токи зичлиги. Бу формуладан ҚЭ нинг фотоВАХ нинг ноидеаллик коэффициенти учун

$$n' = \frac{qU}{kT} \frac{1}{\ln\left(\frac{j_\phi + j_{кз} + j_0}{j_0}\right)} \quad (2)$$

ифодани олиш мумкин. Аммо бу ифодадан фойдаланиб фотоВАХ нинг ноидеаллик коэффицентини ҳароратга боғланишини фақат тажрибалар натижаларидангина аниқлаш мумкин. Чунки, фототок зичлиги ва кучланишни ҳароратга боғланишини аниқловчи ифодалар аниқланмаган.

[1,2] ишларда ҚЭ ларининг салът ишлаш кучланиши (U_{xx}), қисқа туташув токи зичлиги, эффе́ктив кучланиш (U_{ϕ}) ва эффе́ктив ток зичлиги (j_{ϕ}) нинг ҳароратга боғланиши тадқиқ қилиш натижасида фотоВАХ ининг ноидеаллик коэффицентини ҳароратга $200 < T < 500$ К ораликда боғлиқ бўлмас экан деб хулоса чиқарилган. ҚЭ фотоВАХ қисқа туташув токи зичлиги аниқланадиган нуқтасида ноидеаллик коэффицентини бирга яқин қийматга, эффе́ктив ток зичлиги аниқланадиган нуқтасида эса икки яримга яқин қийматга эга бўлиши кўрсатилган. Бундан ҚЭ фотоВАХ ининг ноидеаллик коэффицентини фотоВАХ нинг турли нуқталарида турлича қийматга эга бўлишини айтиш мумкин. Ҳақиқатдан ҳам фотоВАХ ининг ноидеаллик коэффицентини намунадан ўтган токни тури билан аниқланади [3], шунинг учун у фотоВАХ ни барча нуқталарида бир хил қийматга эга бўлиши мумкин эмас. Салът ишлаш кучланиши фототок нолга тенг бўладиган нуқтада аниқланганлиги учун у ҚЭ фотоВАХ ининг ноидеаллик коэффицентига боғлиқ бўлмайди. Юқоридагиларни ҳисобга олиб ушбу ишда фотоВАХ ининг ноидеаллик коэффицентини ҳароратга боғланишини тадқиқ қилиш мақсад қилиб қўйилган.

[2] ишда тўйиниш токи зичлиги, салът ишлаш кучланиши, қисқа туташув токи зичлигининг ҳароратга боғланиши учун $T_0=300$ К бўлганда қуйидаги

$$j_0 = j_{00} \exp\left[\frac{q\phi}{k}\left(\frac{1}{T_0} - \frac{1}{T}\right)\right] \quad (3)$$

$$U_{xx} = (U_{0xx} - \phi)\frac{T}{T_0} + \phi \quad (4)$$

$$j_{кз} = j_{00} \exp\left[\frac{q\phi}{k}\left(\frac{1}{T_0} - \frac{1}{T}\right)\right] \left[\exp\left[\frac{q\phi}{n_1' k T_0} \left(\frac{U_{0xx}}{\phi} - 1 + \frac{T_0}{T}\right)\right] - 1 \right] \quad (5)$$

ифодалар олинган. Бу ерда U_{0xx} - ва j_{00} - $T_0=300$ К ҳароратдаги салът ишлаш кучланиши ва тўйиниш токи зичлиги, n_1' - ҚЭ фотоВАХ и ноидеаллик коэффицентининг қисқа туташув токи зичлиги аниқланадиган нуқтасидаги қиймати, ϕ - ҚЭ нинг потенциал тўсиғи баландлиги. Маълумки, ҚЭ нинг потенциал тўсиғи баландлигини ҳароратга боғланиши

$$\phi = \phi_0 - \gamma T \quad (6)$$

кўринишда ёзилади. Бу ерда γ - потенциал тўсиқ баландлигини ҳароратий

коэффициенти бўлиб яримўтказгичлар учун унинг қиймати $5 \cdot 10^{-3} - 5 \cdot 10^{-5} B/K$ оралликда ётади.

ҚЭ дан чиқувчи кучланиш саьлт ишлаш кучданишига тенг бўлганда фототок нолга тенг бўлганлиги учун (1) формуладан қуйидаги ифодани олиш мумкин

$$n' = \frac{qU_{xx}}{kT} \frac{1}{\ln\left(\frac{j_{кз} + j_0}{j_0}\right)} \tag{7}$$

[4] ишда эса, ҚЭ эффектив кучланиши ва эффектив ток кучи зичликлари учун

$$U_{эф} = \frac{n_2' kT}{q} \ln \frac{j_{кз}}{j_0} \frac{n_2' kT}{q U_{xx}} \tag{8}$$


$$j_{эф} = j_{кз} \left(\frac{n_2' kT}{q U_{xx}} - 1 - \frac{j_0}{j_{кз}} \right) \tag{9}$$

ифодалар олинган. Бу ерда n_2' - ҚЭ фотоВАХ и ноидеаллик коэффициентининг эффектив ток зичлиги аниқланадиган нуқтасидаги қиймати.

(1) формулада кучланиш эффектив қийматга тенг бўлганда ток кучи зичлиги ҳам ўзининг эффектив қийматига тенг бўлади. Шунинг учун ҚЭ нинг фотоВАХ нинг эффектив ток зичлиги аниқланадиган нуқтасида ноидеаллик коэффициенти учун

$$n' = \frac{qU_{эф}}{kT} \frac{1}{\ln\left(\frac{j_{эф} + j_{кз} + j_0}{j_0}\right)} \tag{10}$$

ифодани олиш мумкин. (7) ва (10) формулаларга мос равишда юқоридаги (3)-(6) ва (8) ҳамда (9) ифодаларни қўйсак, ҚЭ фотоВАХ и ноидеаллик коэффициентининг ҳароратга боғланишларини аниқловчи ифодаларга эга бўламиз. Монокристалл кремний асосли ҚЭ лари учун фототок қисқа туташув токига тенг бўладиган нуқта учун (7) ифодадан фотоВАХ и ноидеаллик коэффициентини ҳароратга боғлангиши учун олинган ҳисоблаш натижалари 1-расмда келтирилган.




1-расм. ҚЭ фотоВАХ и ноидеаллик коэффициентининг ҳароратга боғланиши.

Ҳисоблашларни $j_{00}=3,468 \cdot 10^{-10} \text{ A/cm}^2$,
 $U_{0cu} = 0,6287 \text{ В}$ $\varphi_0=1,2 \text{ В}$, $n_1'=1,0018$ ва $\gamma=2 \cdot 10^{-4} \text{ В/K}$

қийматлар учун бажарилди.

1-расмдан кўришиб турибдики, ҚЭ ларининг фотоВАХ ини ноидеаллик коэффициентини $160 \text{ K} < T < 500 \text{ K}$ ораликда ҳароратга умуман боғлиқ бўлмас экан. Ва уни қиймати $n_1'=1,0018$ га тенг бўлар экан. Эслатиб ўтамизки, ҳисоблашларни $j_{00}=3,468 \cdot 10^{-10} \text{ A/cm}^2$, $U_{0cu} = 0,6287 \text{ В}$ $\varphi_0=1,12 \text{ В}$, $n_1'=1,0018$ ва



2-расм. ҚЭнинг эффектив қувват аниқланадиган нуктадаги ВАХ ноидеаллик коэффициентининг ҳароратга боғланиши.

$\gamma=2 \cdot 10^{-4} \text{ В/K}$ қийматлар учун бажарилди.

2-расмда эса, фотоВАХ нинг ҚЭ фотогальваник характеристикаларни эффектив қиймати аниқланадиган нуктаси учун (10) формуладан олинган монокристалл кремний асосли ҚЭ учун бажарилган ҳисоблаш натижалари келтирилган. Расмдан кўринадик, ҚЭ лари фотоВАХ ини ноидеаллик коэффициентини $160 \text{ K} < T < 500 \text{ K}$ ораликда ҳароратга деярли боғлиқ бўлмас экан яъни $2,1 < n_2' < 2,3$ ораликдагина ўзгарар экан.

Ҳисоблашларни $j_{00}=3,468 \cdot 10^{-10} \text{ A/cm}^2$, $U_{0cu} = 0,6287 \text{ В}$ $\varphi_0=1,12 \text{ В}$, $n_2'=2.5$ ва

$\gamma=2 \cdot 10^{-4} \text{ В/K}$ қийматлар учун бажарилди. Аммо, $n_2'=2.5$ бажарилган

ҳисоблашда n_2' нинг қиймати нима учун бу қийматдан фарқ қилишини қуйидагича изоҳлаш мумкин. Маълумки, фотоВАХ ни ҚЭ ининг фотогальваник характеристикаларини эффектив қиймати аниқланадиган нуктада фототок кучли ўзгаришга учрайди. Шунинг учун ҳароратни ўзгариши билан фотоВАХ нинг ноидеаллик коэффициентини ҳам жуда кичик қзгаришга учраши мумкин.

Шундай қилиб, ушбу ишда ҚЭ ларининг фотоВАХ ини ноидеаллик коэффициентини ҳароратга боғланиши тадқиқ қилинди ва бу катталикни қиймати $160 \text{ K} < T < 500 \text{ K}$ ораликда ҳароратга боғлиқ бўлмаслиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар


1. Aliev R., Ikramov R.G., Alinazarova M.A., Ismanova O.T. Influence of Temperature on Photocurrent of Amorphous Semiconductor-Based Solar Element. *Applied Solar Energy*, 2009, Vol.45, No.3, pp. 148-150.
2. Алиев Р., Алиназарова М.А., Икрамов Р.Г., Исманова О.Т. Коэффициент заполнения нагрузочной вольт-амперной характеристики солнечных элементов и его роль в определении их температурных свойств. *Гелиотехника*, 2011, №2, с. 38-41.
3. С. Зи. *Физика полупроводниковых приборов 2-часть* Москва "Мир" 1984.- 456с.
4. Алиев Р., Икрамов Р.Г., Исманова О.Т., Алиназарова М.А. Полуэмпирическое уравнение для температурных зависимостей фотоэлектрических параметров а-Si:H солнечных элементов. *Гелиотехника*, 2011, №1, с. 61-64.

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Imomova Shafolat Mahmudovna

Buxoro davlat universiteti, Axborot texnologiyalari
kafedrasida katta o'qituvchisi, O'zbekiston.

BURCHAKLI SOHADA VEKTORLI TO'LQIN TENGLAMASIGA QO'YILGAN ARALASH MASALANI PARAMETRLI AYIRMALI SXEMA BILAN SONLI HISOBLASH

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0656-2020-2-8>

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada burchakli sohada vektorli yo'lqin tenglamasiga qo'yilgan aralash masalani sonli hisoblovchi ayirmali sxema qurilgan va turg'unligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: aralash masala, matrisa, ayirmali sxema, turg'unlik, kompleks, vector, Lopatinskiy sharti.

Имомова Шафолат Махмудовна

старший преподаватель кафедры информационных технологий, Бухарский государственный университет, Узбекистан.

ПАРАМЕТРНАЯ РАЗНОСТНАЯ СХЕМА ДЛЯ ЧИСЛЕННОГО РЕШЕНИЯ СМЕШАННОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ ВОЛНОВОГО УРАВНЕНИЯ В ОБЛАСТИ С УГЛОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье построена разностная схема для численного решения смешанной задачи для волнового уравнения в области с углом, доказываемая её устойчивость.

Ключевые слова: смешанная задача, матрица, разностная схема, устойчивость, комплекс, вектор, условия Лопатинский.

Imomova Shafolat Makhmudovna

Senior Lecturer, Department of Information
Technology, Bukhara State University, Uzbekistan.

A PARAMETRIC DIFFERENCE SCHEME FOR THE NUMERICAL SOLUTION OF A MIXED PROBLEM FOR A WAVE EQUATION

IN A REGION WITH AN ANGLE

SUMMARY

In the article a difference scheme for numerical solution of mixed problem for wave equation in wiz corner is constructed. The difference scheme stability is proved.

Key word's: mixed problem, matrix, difference scheme, stability, complex, vector, Lopatinskiy terms.

Quyidagi masalani qaraymiz:

$R_+^3 = \{(t, x, y) | t, x, y > 0\}$ sohada

$$U_{tt} - U_{xx} - U_{yy} = 0 \tag{1}$$

vektorli to'liq tenglamasining

$x = 0$ da

$$J_1 U_t - A_1 U_x - B_1 U_y = 0, (t, y) \in R_+^2 \tag{2}$$

$y = 0$ da

$$J_2 U_t - A_2 U_x - B_2 U_y = 0, (t, x) \in R_+^2 \tag{3}$$

chegaraviy shartlarni va

$$U = \Phi(x, y), U_t = \psi(x, y), t = 0, (x, y) \in R_+^2 \tag{4}$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

Bu yerda $J_1, A_1, B_1, J_2, B_2, A_2 - n$ o'lchovli o'zgarmas kompleks matrisalar. [1] monografiyada ushbu masalaning yechimi uchun aprior baho olingan. Aprior bahoning olinishi "Energiyaning dissipativ integralini" qurishga asoslangan.

$\xi, \theta (x = r \cos \theta, y = r \sin \theta, \xi = \ln r)$ qutb koordinatalar o'tib (1)–(4) masalani

$t > 0, 0 < \theta < \frac{\pi}{2}, \xi \in R'$ sohada

$$\left\{ e^\xi A_0 \frac{\partial}{\partial t} - B_0 \frac{\partial}{\partial \theta} - C_0 \frac{\partial}{\partial \xi} + Q_0 \right\} V = 0, t > 0, (\theta, \xi) \in \Pi \tag{5}$$

$$J_1 V_1 + A_1 V_2 - B_1 V_3 = 0, \theta = \frac{\pi}{2}, t > 0, \xi \in R' \tag{6}$$

$$J_2 V_1 - A_2 V_2 - B_2 V_3 = 0, \theta = 0, t > 0, \xi \in R' \tag{7}$$

$$V = \left\{ e^\xi \tilde{\psi}(\theta, \xi), \tilde{\Phi}'_\xi(\theta, \xi) \right\}, t = 0, (\theta, \xi) \in \Pi \tag{8}$$

bu yerda

$$A_0 = \begin{pmatrix} K & L & M \\ L & K & iN \\ M & -iN & K \end{pmatrix}, B_0 = \begin{pmatrix} L & K & iN \\ K & L & M \\ -iN & M & -L \end{pmatrix}, C_0 = \begin{pmatrix} M & -iN & K \\ iN & -M & L \\ K & L & M \end{pmatrix}$$

$$Q_0 = \begin{pmatrix} M & 0 & 0 \\ iN & 0 & 0 \\ K & 0 & 0 \end{pmatrix}, V = \begin{pmatrix} V_1 \\ V_2 \\ V_3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} e^{\xi} U_t \\ U_\theta \\ U_\xi \end{pmatrix}$$

K, L, M, N – hozircha ixtiyoriy elementlari θ ga bog'liq ermit matrisalar.

Biz (5)–(8) aralash masalani approksimatsiya qiluvchi parametrli ayirmali sxemani

quramiz. Buning uchun (5) sistemada $V = e^{\frac{1}{2}\xi} Y$ almashtirish bajarib, quyidagi

ko'rinishlarda yozib olamiz:

$$e^{\xi} A_0 \frac{\partial Y}{\partial t} - \frac{\partial [B_0 Y]}{\partial \theta} - C_0 \frac{\partial Y}{\partial \xi} + \left[Q_0 - \frac{1}{2} C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right] Y = 0 \quad (9)$$

$$e^{\xi} A_0 \frac{\partial Y}{\partial t} - B_0 \frac{\partial Y}{\partial \theta} - C_0 \frac{\partial Y}{\partial \xi} + \left[Q_0 - \frac{1}{2} C_0 \right] Y = 0 \quad (10)$$

Ushbu (9)-(10) sistemalarni chap tomondan $D = \text{diag}(y_1, y_2, y_3)$ matrisaga

ko'paytiramiz. Hosil qilingan sistemalarni qo'shib

$$2e^{\xi} D A_0 \frac{\partial Y}{\partial t} - D \frac{\partial [B_0 Y]}{\partial \theta} - D B_0 \frac{\partial Y}{\partial \theta} - 2 D C_0 \frac{\partial Y}{\partial \xi} + D \left[2 Q_0 - C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right] Y = 0 \quad (11)$$

sistemani hosil qilamiz.

Qaralayotgan $t \geq 0, 0 \leq \theta \leq \frac{\pi}{2}, \xi \in R^1$ sohada t, θ, ξ o'qlari bo'ylab mos

ravishda $\Delta t = \Delta_t, \Delta \theta = \Delta_\theta, \Delta \xi = \Delta_\xi$ qadamlar bilan to'r quramiz. Quyidagi

belgilahslarni kiritamiz:

$$Y_{ij}^n = Y(n\Delta_t, i\Delta_\theta, j\Delta_\xi) = (y_1(n\Delta_t, i\Delta_\theta, j\Delta_\xi), y_2(n\Delta_t, i\Delta_\theta, j\Delta_\xi), y_3(n\Delta_t, i\Delta_\theta, j\Delta_\xi))', i = \overline{0, 1}, n, |j| = 0, 1$$

$$\|Y^n\|_{A_0}^2 = \Delta_\theta \Delta_\xi \sum_{i=0}^1 \sum_{j=-\infty}^{\infty} e^{\xi_j} (A_0 Y_{ij}^n, Y_{ij}^n), L = (1, 1, 1)'$$

Endi (11) tenglikni approksimatsiya qiladigan parametrli ayirmali tenglamani

quramiz:

$$\begin{aligned}
 & e^{\xi_j} D_{ij}^n(A_0)_i \frac{Y_{ij}^{n+1} - Y_{ij}^n}{\Delta_t} + e^{\xi_j} D_{ij}^{n+1}(A_0)_i \frac{Y_{ij}^{n+1} - Y_{ij}^n}{\Delta_t} - \sigma \left[D_{ij}^{n+1} \frac{(B_0 Y)_{i+1j}^{n+1} - (B_0 Y)_{ij}^{n+1}}{\Delta_\theta} + D_{i+1j}^{n+1}(B_0)_{i+1} \frac{Y_{i+1j}^{n+1} - Y_{ij}^{n+1}}{\Delta_\theta} \right. \\
 & \left. + D_{ij}^{n+1}(C_0)_i \frac{Y_{ij+1}^{n+1} - Y_{ij}^{n+1}}{\Delta_\xi} + D_{ij+1}^{n+1}(C_0)_i \frac{Y_{ij+1}^{n+1} - Y_{ij}^{n+1}}{\Delta_\xi} \right] - (1-\sigma) \left[D_{ij}^n \frac{(B_0 Y)_{i+1j}^n - (B_0 Y)_{ij}^n}{\Delta_\theta} + D_{i+1j}^n(B_0)_{i+1} \frac{Y_{i+1j}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\theta} \right. \\
 & \left. + D_{ij}^n(C_0)_i \frac{Y_{ij+1}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\xi} + D_{ij+1}^n(C_0)_i \frac{Y_{ij+1}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\xi} \right] + D_{ij}^n \left[2Q_0 - C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right]_i Y_{ij}^n = 0
 \end{aligned}
 \tag{12}$$

$$n = \overline{0, N-1}, \quad i = \overline{0, I-1}, \quad |j| = 0, 1, 2, \dots$$

$$i = 0, |j| = 0, 1, 2, \dots \text{ da } (y_1)_{oj}^n - a_2 (y_2)_{oj}^n - b_2 (y_3)_{oj}^n = 0, \tag{13}$$

$$i = I, |j| = 0, 1, 2, \dots \text{ da } (y_1)_{Ij}^n + a_1 (y_2)_{Ij}^n - b_1 (y_3)_{Ij}^n = 0, \tag{14}$$

$$n = 0, \quad i = 0, 1, 2, \dots, I, \quad |j| = 0, 1, 2, \dots \text{ da } Y_{ij}^0 = \left(e^{\frac{1}{2}\xi_j} \tilde{\psi}(\xi_j, \theta_i), e^{\frac{1}{2}\xi_j} \tilde{\psi}_\theta(\xi_j, \theta_i), e^{\frac{1}{2}\xi_j} \tilde{\psi}_\xi(\xi_j, \theta_i) \right)' \tag{15}$$

Teorema. Faraz qilamiz Lopatinskiy tekis sharti bajarilsin. U holda (12)–(15) ayirmali sxema $\sigma \in [0, 1]$ uchun $\sqrt{J_n}$ energetik normada turg'un bo'ladi, bu yerda

$$J^n = \Delta_\theta \Delta_\xi \sum_{i=0}^{I-1} \sum_{j=-\infty}^{+\infty} (A_0 V, V)_{ij}^n.$$

Isbot.

Yuqorida tenglamalar sistemasini o'ng tomonidan yasovchilari birlardan iborat vektorga skalyar ko'paytiramiz.

$$\begin{aligned}
 & \left(\overline{D}_{ij}^n(A_0)_i \frac{Y_{ij}^{n+1} + Y_{ij}^n}{\Delta_t}, L \right) + \left(D_{ij}^{n+1}(\overline{A_0})_i \frac{\overline{Y}_{ij}^{n+1} - \overline{Y}_{ij}^n}{\Delta_t}, L \right) = \\
 & \left((A_0)_i \frac{Y_{ij}^{n+1} + Y_{ij}^n}{\Delta_t}, (\overline{DL})_{ij}^n \right) + \left((A_0)_i (DL)_{ij}^{n+1}, \frac{\overline{Y}_{ij}^{n+1} - \overline{Y}_{ij}^n}{\Delta_t} \right) = \\
 & \frac{1}{\Delta_t} (A_0 Y, \overline{Y})_{ij}^{n+1} - \frac{1}{\Delta_t} (A_0 Y, \overline{Y})_{ij}^{n+1}; \\
 & \left(\sigma \overline{D} \frac{[B_0 Y]_{i+1} - [B_0 Y]_i}{\Delta_\theta}, L \right) + \left(\sigma D_{i+1}[\overline{B_0}]_{i+1} \frac{\overline{Y}_{i+1} - \overline{Y}_i}{\Delta_\theta}, L \right) = \\
 & = \sigma \left(\frac{[B_0 Y]_{i+1} - [B_0 Y]_i}{\Delta_\theta}, \overline{Y}_i \right) + \sigma \left([B_0 Y]_{i+1}, \frac{\overline{Y}_{i+1} - \overline{Y}_i}{\Delta_\theta} \right) = \\
 & = \frac{\sigma}{\Delta_\theta} (B_0 Y, \overline{Y})_{i+1j}^n - \frac{\sigma}{\Delta_\theta} (B_0 Y, \overline{Y})_{ij}^n;
 \end{aligned}$$

bu yerda $D = D_{ij}^n$, $\bar{D}_{i+1} = \bar{D}_{i+1,j}^n$ va hokazo.

$$\begin{aligned} & \left(\sigma \bar{D} C_0 \frac{Y_{j+1} - Y_j}{\Delta_\xi}, L \right) + \left(\sigma D_{j+1} C_0 \frac{\bar{Y}_{j+1} - Y_j}{\Delta_\xi}, L \right) = \\ & = \sigma \left(C_0 \frac{Y_{j+1} - Y_j}{\Delta_\xi}, \bar{Y}_j \right) + \sigma \left(C_0 Y_{j+1}, \frac{\bar{Y}_{j+1} + Y_j}{\Delta_\xi} \right) = \\ & = \frac{\sigma}{\Delta_\xi} (C_0 \bar{Y}, \bar{Y})_{ij+1}^n - \frac{\sigma}{\Delta_\xi} (C_0 Y, \bar{Y})_{ij}^n; \\ & \left((1 - \sigma) D_{ij}^n \frac{[B_0 Y]_{i+1,j}^n - [B_0 Y]_{ij}^n}{\Delta_\theta}, L \right) + \left((1 - \sigma) D_{i+1,j}^n [B_0]_{i+1} \frac{Y_{i+1,j}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\theta}, L \right) = (1 - \sigma) \left(\frac{[B_0 Y]_{i+1,j}^n - [B_0 Y]_{ij}^n}{\Delta_\theta}, Y_{ij}^n \right) \\ & + (1 - \sigma) \left(\frac{Y_{i+1,j}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\theta}, [B_0 Y]_{i+1,j}^n \right) = \frac{1 - \sigma}{\Delta_\theta} (B_0 Y, Y)_{i+1,j}^n - \frac{1 - \sigma}{\Delta_\theta} (B_0 Y, Y)_{ij}^n \\ & \left((1 - \sigma) D_{ij}^n (C_0)_i \frac{Y_{ij+1}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\xi}, L \right) + \left((1 - \sigma) D_{ij+1}^n [C_0]_i \frac{Y_{ij+1}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\xi}, L \right) = (1 - \sigma) \left(\frac{Y_{ij+1}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\xi}, (C_0)_i Y_{ij}^n \right) + \\ & + (1 - \sigma) \left(\frac{Y_{ij+1}^n - Y_{ij}^n}{\Delta_\xi}, [C_0 Y]_{i,j+1}^n \right) = \frac{1 - \sigma}{\Delta_\xi} (C_0 Y, Y)_{ij+1}^n - \frac{1 - \sigma}{\Delta_\xi} (C_0 Y, Y)_{ij}^n \\ & \left(\bar{D} \left[Q_0 - \mu C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right] Y, L \right) + \left(D [\bar{Q}_0 - \mu \bar{C}_0] \bar{Y}, L \right) = \\ & = \left(\left[Q_0 - \mu C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right] Y, \bar{Y} \right) + \left(D [Q_0^* - \mu \bar{C}_0] \bar{Y}, Y \right) = \\ & \left(\left[Q_0 + Q_0^* - 2 \operatorname{Re} \mu C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right] Y, \bar{Y} \right) \end{aligned}$$

tengliklarni hosil qilamiz. Ushbu tengliklardan esa

$$\begin{aligned} & e^{\xi_j} \frac{1}{\Delta_i} \left\{ (A_0 Y, \bar{Y})^{n+1} - (A_0 Y, \bar{Y})^n \right\} - \frac{\sigma}{\Delta_\theta} \left\{ (B_0 Y, \bar{Y})_{i+1} - (B_0 Y, \bar{Y})_i \right\} - \\ & - \frac{1}{\Delta_\xi} \left\{ (C_0 Y, \bar{Y})_{j+1} - (C_0 Y, \bar{Y})_j \right\} - \frac{1 - \sigma}{\Delta_\theta} \left\{ (B_0 Y, \bar{Y})_{i+1} - (B_0 Y, \bar{Y})_i \right\} - \\ & - \frac{1 - \sigma}{\Delta_\theta} \left\{ (C_0 Y, \bar{Y})_{j+1} - (C_0 Y, \bar{Y})_j \right\} + \left(\left[Q_0 + Q_0' - C_0 + \frac{d}{d\theta} B_0 \right]_i Y, Y \right)_{ij}^n = 0 \end{aligned}$$

munosabatni olamiz. Ushbu munosabatni $\Delta_\xi, \Delta_\theta$ ga ko'paytirib i bo'yicha 0 dan $I - 1$ gacha va j bo'yicha $-\infty$ dan $+\infty$ gacha yig'ib chiqamiz.

$$\|Y^{n+1}\|_\Delta^2 = \Delta_\theta \cdot \Delta_\xi \cdot \sum_{i=0}^{I-1} \sum_{j=-\infty}^{+\infty} e^{\xi_j} (A_0 Y_{ij}^{n+1}, \bar{Y}_{ij}^{n+1}) \text{ belgilashni kiritib va } |\xi| \rightarrow \infty \text{ da } \|Y\| = (\bar{Y}, Y)^{\frac{1}{2}} \rightarrow 0$$

inobatga olib

$$\|Y^{n+1}\|_A^2 - \|Y^n\|_A^2 = \Delta_\theta \cdot \Delta_\xi \cdot \sigma \cdot \sum_{j=-\infty}^{+\infty} \left\{ (B_0 Y, \bar{Y})_{I,j}^n - (B_0 Y, \bar{Y})_{0,j}^n \right\} + \Delta_t \cdot \Delta_\theta \cdot \Delta_\xi \cdot \sum_{i=0}^{I-1} \sum_{j=-\infty}^{+\infty} \left(\left[Q_0 + Q_0^* - 2 \operatorname{Re} \mu C_0 - \frac{d}{d\theta} B_0 \right]_{ij} Y, \bar{Y} \right)^n$$

tenglikni hosil qilamiz. [2] ga asosan

$$e^{\xi_0} (A_0 Y, Y)_{ij}^n > 0, e^{\xi_0} (A_0 Y, Y)_{ij}^{n+1} > 0, -\sigma (B_0 Y, Y)_{ij}^n \geq 0, \sigma (B_0 Y, Y)_{ij}^n \geq 0, \sigma (B_0 Y, Y)_{0j}^{n+1} \geq 0, (1 - \sigma) (B_0 Y, Y)_{0j}^n \geq 0$$

tengsizlikni isbot qilish mumkin. Bundan esa

$$\|U^{n+1}\|_{W_2'}^2 \leq \Delta_\theta \cdot \Delta_\xi \sum_{i=1}^{I-1} \sum_{j=-\infty}^{\infty} \left\{ (U, \bar{U})_{ij}^n + (U_t, \bar{U}_t)_{ij}^n + (U_x, \bar{U}_x)_{ij}^n + (U_y, \bar{U}_y)_{ij}^n \right\} \text{ munosabatga ega}$$

bo'lamiz. Bu esa teoremani to'liq isbotlaydi.

Adabiyotlar


1. Блохин А.М., Ткачев Д.Л. Смешанная задача для волнового уравнения в координатных областях. Получение априорных оценок для смешанных задач для многомерного волнового уравнения. // Вычислительные технологии. Т.1, № 1,2. 1996, с.13-37, 26-46.
2. Худойберганов М.У. Устойчивость разностных схем для векторного волнового уравнения.//Труды Международной научной конференции. Дифф. урав. частными производными и родственные проблемы анализа и информатики.-Ташкент. 2004, с.305-308.
- 3.3. Исроилов М.И. Ҳисоблаш усуллари. 1-қисм.-Тошкент, Ўзбекистон нашриёти, 2003.

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Ro'ziyeva Zamira Naxsham qizi

Qashqadaryo viloyati Koson tuman 72-maktabning
matematika va informatika fani o'qituvchisi

КОМБИНАТОРИКА MASALALARINI YECHISH UCHUN O'QITUVCHILARGA TAVSIYALAR

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0656-2020-2-9>

ANNOTATSIYA

Maqolada kombinatorika masalalarini yechishda kerakli formula tanlash algoritmi keltirilgan va misollar bilan tushuntirib ko'rsatilgan

Kalit so'zlar: kognitiv kompetensiya, o'rin almashtirish, guruhlash, o'rinlashtirish, kombinatorika, algoritim

Ruzieva Zamira Nakhsham qizi

The teacher of mathematics and information
technology at 72th school in Koson district, Kashkadarya region

RECOMMENDATIONS FOR TEACHERS FOR SOLVING COMBINATORIAL PROBLEMS

ANNOTATION

The article presents an algorithm for selecting the appropriate formula to solve combinatorial problems and it presents some examples

Keywords: cognitive competence, exchanging, grouping, positioning, combinatorics, algorithm

Рузиева Замира дочь Нахшама

Учитель математики и информатики
в школе №72 Касанского района Кашкадарьинской области

РЕКОМИНДАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ПО КОМБИНАТОРНЫМ ВОПРОСАМ

АННОТАЦИЯ

В статье представлен алгоритм выбора подходящих формул для решения комбинаторных задач и проиллюстрированы примеры

Ключевые слова: когнитивная компетенность, смешение, группировка, позиционирование, комбинаторика, алгоритм


Комбинаторика masalalarini yechish uchun o'qituvchilarga tavsiyalar. 2019-2020-o'quv yilida chop etilgan 8-sinflar uchun algebra darsligiga yangi "Комбинаторика elementlari" bo'limi kiritilgan bo'lib, bo'lim so'ngida misol va masalalar keltirilgan. Matematika fanidan kompetensiyaga asoslangan Davlat Ta'lim standartlari sodda kombinator qoidalar (jamlash, ko'paytirish, kiritish-chiqarish), o'rin almashtirishlar, o'rinlashtirishlar va takrorsiz guruhlashlar mohiyatini tushuntirib bera olish, tegishli misollar keltira olish, bobga doir murakkabroq masalalar yecha olish, sodda tasdiqlarni isbotlay olish kabi fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.


Комбинаторика elementlari mavzusini o'rganan o'quvchida kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi) ning quyidagi elementlari shakllanishi lozim:

- o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni notanish vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila olish;
- o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni sodda kundalik vaziyatlarda qo'llay olish;
- o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay olish;

Комбинаторик masalalarni yechishda quyidagi algoritm juda qo'l keladi va yechish uchun lozim formulani tanlashga yordam beradi. Комбинаторик masalalarni guruhlash, o'rinlashtirish va o'rin almashtirish usullari yordamida yechishni ko'rib chiqamiz.

Комбинаторика masalalarini yechishda formula tanlash algoritmi





Masala yechishda lozim bo'lgan formulani tanlashni bir necha misollarda ko'rib chiqamiz. Faqat to'g'ri formulani algoritm yordamida tanlashni o'rganib olish kerak.

Guruhlash:

Masala: Omborda 10 ta yashik bor. Har bir avtomashinaga 5 tadan yashik ortilisa, yashiklarni 2 ta avtomashinada necha usulda olib chiqib ketish mumkin?

Yechish: Sxema bo'yicha $n=10$, $r=5$ ga egamiz, tartibi muhim emas, takrorlanish yo'q. Demak, **guruhlash** formulasini qo'llash kerak. 10 tadan 5 ta ob'ekt tanlanadi.

$$C_n^r = \frac{n!}{r!(n-r)!}$$

$$C_{10}^5 = \frac{10!}{5!(10-5)!} = \frac{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 10}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 1 \cdot 2 \cdot 4 \cdot 5} = 252 \text{ (ta usul)}$$

Javob: 252.

Takrorlash bilan guruhlash:

Masala: Do'konda 10 xil turdagi tabriknomalar sotilmoqda. 12 xil tabriknomani necha usulda sotib olish mumkin?

Yechish: Sxema bo'yicha: $n \square 10$, $r \square 12$ tartibi muhim emas, takrorlanish bor. Guruhlashning takrorlanish formulasini qo'llaymiz.

$$\bar{C}_n^r = C_{n+r-1}^r = \frac{(n+r-1)!}{r!(n-1)!}$$

Tabriknomalarni 12 (m) ta 10 (n) tadan takrorlash bilan quyidagicha hisoblaymiz:

$$\bar{C}_{10}^{12} = C_{21}^{12} = \frac{21!}{12!(21-12)!} = \frac{21!}{12!9!} = \frac{13 \cdot 14 \cdot 15 \cdot 16 \cdot 17 \cdot 18 \cdot 19 \cdot 20 \cdot 21}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9} = \frac{13 \cdot 5 \cdot 17 \cdot 2 \cdot 19 \cdot 7}{1} = 293930.$$

Javob: 293930.

O'rinlashtirish:

Masala: Dars jadvali har kuni 5 ta darsdan iborat. 11 ta fanni dars jadvaliga necha usulda joylashtirish mumkin?

Yechish: Sxema bo'yicha: $n = 11$, $r = 5$ tartibi muhim (darslar tartib bilan), takrorlanish yo'q. O'rinlashtirish formulasini qo'llaymiz:

$$A_n^r = \frac{n!}{(n-r)!}$$

Darslar hafta davomida takrorlanmaydi deb hisoblaymiz. 11 ta fandan joylashishlar sonini quyidagicha hisoblaymiz:

$$A_{11}^5 = \frac{11!}{(11-5)!} = \frac{11!}{6!} = 11 \cdot 10 \cdot 9 \cdot 8 \cdot 7 = 55440$$

Javob: 55440.

O'rinlashtirish takrorlash bilan:

Masala: Seyf shifri 6 ta raqamdan iborat. Ular ketma-ket terilib, takrorlanishi mumkin bo'lsa, kombinatsiyalar soni nechta bo'lishi mumkin?

Yechish: Sxema bo'yicha: $n = 10$, $r = 6$ tartibi muhim (shifr ma'lum teriladi), takrorlanish bor (raqamlar takrorlanishi mumkin).

O'rinlashtirish takrorlanish bilan formulasini qo'llaymiz:

$$\overline{A}_n^r = n^r$$

10 ta raqamning barchasi shifrdagi qatnashadi deb hisoblaymiz. Ulardan 6 tasini tanlash lozim. Mumkin bo'lgan kombinatsiyalar sonini quyidagicha hisoblaymiz:

$$N = \overline{A}_{10}^6 = 10^6$$


Javob: 10^6 .

Ushbu algoritm yordamida kombinatorik masalalarni yechish uchun formulalarni aniqlash juda oson va qulay. Algoritm mantiqiy fikrlash tizimini shakllantirishga ham yordam beradi.

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Mingboev Uchkun To'lqin o'g'li
Navoiy Davlat konchilik institute talaba
Nasimov Oqil Yozil O'g'li
Navoiy Davlat konchilik institute talaba

МАТЕМАТИКАНИНГ JOZIBASI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0656-2020-2-10>

ANNOTATSIYA

Matematika qiziq fan qancha o'qisang ,misol ishlasang o'ziga shuncha ko'p jalb qiladi.

Kalit so'z'lar:Sonni kvadratga ko'tarish,5 bilan tugagan bir xil sonlar va 1 lga ko'paytirish qoidasi.

Мингбоев Учкун Тулкин угли,
Навоийский государственный горный институт, студенты
Насимов Окил Ёзил угли,
Навоийский государственный горный институт, студенты

МАТЕМАТИКА ПРИТЯГИВАТ

АННОТАЦИЯ

Математика была интересной наука,сколко читать,пример зфботает,она привлекает так много

Ключевые слова:номер поднимает квадрат,подобно этому номер кончатся с 5 и положение умножение к 11

Mingboev Uchkun Tulkin's son,
Navoiy state mining university, student
Nasimov Okil Yozil's son
Navoiy state mining university, student

MATHEMATICS'S ATTRACTION

ABSTRACT

Mathematics are interested subject,how much do you read,do you soluted an example,it is so much a lot of attraction itself

Key words:The number raise square,the same numbers finish with five and the rule become multiplication to 11

Matematika juda qiziq fan hisoblanib bizni o'ziga doim jalb qilib kelgan.Quyida ba'zi holatlarni birga ko'rib chiqmiz:

Ixtiyoriy a soni uchun

$a^2=(a + b) \times (a - b) + b^2$ formula yordamida kvadratga ko'tarishimiz mumkin. Masalan: $17^2=(17+3) \times (17 - 3) + 3^2$

Keyin yana 2ta bir xil 5 bilan tugagan sonlarni ko'paytmasi,5dan chapda turgan son va shu sondan keying son ko'paytmasining oxiriga 25 soni yozilib qo'yilganiga teng.Masalan:135 ni 135ga ko'paytirsak qoidaga ko'ra 5dan chapda turgan son 13 va undan keying son 14 ularni ko'payritamiz keyin oxiriga 25 sonini yozib qo'yamiz.Yechish: $13 \times 14 = 182$ endi 25ni yozsak javob: $13 \times 14 = 18225$ ga teng bo'ladi. 11 ga ko'paytirish. Har bir raqamga uning qo'shnisini qo'shing.Misol. 1234×11 .Ko'payuvchining raqamlarini birlik xona raqamidan boshlab ishlab chiqamiz:4 ga uning qo'shnisini, ya'ni nolni qo'shamiz, 4 hosil boiadi. Navbatdagi ishlanadigan raqam 3. Unga 4 ni qo'shib, 7 ni hosil qilamiz. So'ngra 2 ga uning qo'shnisini, ya'ni 3 ni qo'shamiz, 5 hosil bo'ladi. 1 ga 2 ni qo'shamiz, 3 hosil bo'ladi. Nihoyat, nolga uning qo'shnisi 1 ni qo'shamiz. 1 hosil boiadi. Shunday qilib, javobda hosil boladigan sonning barcha raqamlarini hosil qildik. Javob: 13574.

Ba'zida trigonometriyani hisoblayotganimizda burchaklarni qiymatini bilmaymiz,shuning uchun hozir ko'rmoqchi bo'lgan usul kalkulyatorsiz topishda bizga yordam beradi,hozir uni topishni ko'ramiz.Masalan: $\alpha=28^\circ$ bo'lsa u holda $\cos 28^\circ = \cos(30^\circ - 2^\circ) = \cos(\frac{\pi}{6} - \frac{\pi}{90}) \approx \cos \frac{\pi}{6} - \sin(\frac{\pi}{6}) \times (-\frac{\pi}{90}) = \sqrt{3}/2 + \frac{1}{2} \times \frac{\pi}{90} = 0.8660 + 0.5 \times 0.0349 \approx 0.883$ ga teng bo'ladi.Bunda biz, biz bilgan (α) qiymatga keltirib olamiz va undan ortqicha yoki kam burchakni $\cos \alpha$ ni hosilasiga ko'paytiramiz.Shunday boshqa qiymatlarni ham kankulyatsiz hisoblashimiz mumkin bo'adi.Ya'na bir matematikadan quyidagi misolni ham ko'rib o'tamiz:

$x^{x^2}=2$ tenglamani yechish talab qilindi,biz uni tenglamani 2la tomonini \log_x qilib olamiz.Demak: $x^2=\log_x^2$ hosil bo'ladi.Biz uni qo'yidagicha yozib olamiz: $x^2=\log_{x^2}^4$ keyin biz belgilash kiritib olamiz. $x^2 = t$ olamiz,keyin qo'yidagi ko'rinishga keladi tenglamamiz. $t=\log_t^4$ bu esa $t^t=4$ ga ya'ni, $t^t=2^2$

$t=2$ ga bo'ladi. $x^2=2$; Javob: $x=\sqrt{2}$ ga teng bo'ladi. Matematika juda qiziq va betakror fandır,uni o'rganish odamga ilhom ba'g'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. S. Yunusov, S. I. Afonina, M. A. Berdiqulov, D. I. Yunusova Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari, Oqituvchi -Matbaa Ijodiy Uyi Toshkent - 2007-yil 62-65 b.
2. A.U.Abdusamidov, H.A.Nasimov,U.M.Nosirov, J.H.Husanov Algebra va matematik analiz asoslari” O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent—2008-yil 198 b



ISSN 2181-0656

Doi Journal 10.26739/2181-0656

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА
ФАНЛАРИ**

**ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ
НАУКИ**

**PHYSICAL AND MATHEMATICAL
SCIENCES**

№2 (2020)

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000